

**GERPES VIRUSI VA BU VIRUSNING INSON ORGANIZMIDA YUZAGA
KELTIRADIGAN SALBIY OQIBATLARI. GERPETIK
ENSEFALOPATIYALAR****Rajabaliyeva Mohruhsor Amandullo qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Tibbiyot fakulteti talabasi

Email: mohruhsorrajabaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola herpes virusi va uning inson organizmiga salbiy ta'sirlari haqida ma'lumot beradi. Unda oddiy herpes virusi (HSV-1 va HSV-2)ning epidemiologiyasi, patogenezini va klinik ko'rinishlari yoritilgan. HSV-1 asosan labial herpesga sabab bo'lsa, HSV-2 jinsiy yo'l bilan yuqadi va genital herpesni keltirib chiqaradi. Virusning latent shaklda uzoq muddat saqlanib, immunitet zaiflashganda qayta faollashuvi ta'kidlangan. Herpes ensefaliti va meningiti kabi og'ir asoratlar, ular tufayli yuzaga keluvchi nevrologik buzilishlar va hayot uchun xavfli bo'lgan holatlar haqida batafsil so'z yuritiladi. Shuningdek, PCR testi yordamida tashxislash usullari, davolashda yuqori dozalarda asiklovir qo'llanilishi va immunitetni qo'llab-quvvatlovchi vaksinalar, jumladan, "Vitagerpavak" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola, shuningdek, herpes virusining surunkali charchoq sindromi, sitomegalovirus, Epshteyn-Barr virusi bilan bog'liqligi va ularning oqibatida limfoma, limfosarkoma kabi kasalliklar rivojlanishi mumkinligini yoritadi. Maqola sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun dolzarb va qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: oddiy herpes virusi, HSV-1, HSV-2, latent, Herpes ensefaliti va meningiti, nevrologik asoratlarga, namoyon qiladi, Tanadagi herpes, Epshteyn-Barr virusi, sitomegalovirus, limfoma, limfosarkoma, gemositoblastoma rivojlanadi, surunkali charchoq sindromi, PCR testi, Homilador ayol, "Vitagerpavak", Gerpetik entsefalopatiyalar, Oddiy herpes ensefaliti (HSE), . Aseptik meningit, Herpes meningiti

**ВИРУС ГЕРПЕСА И ЕГО НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЛЯ
ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА. ГЕРПЕТИЧЕСКИЕ ЭНЦЕФАЛОПАТИИ**

Раджабалиева Мохрухсор Амандулло кизи

Термезский университет экономики и сервиса,
Студент-медик

Электронная почта: : mohruhsorrajabaliyeva@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена вирусу герпеса и его негативному влиянию на организм человека. Рассматриваются эпидемиология, патогенез и клинические проявления вируса простого герпеса (HSV-1 и HSV-2). HSV-1 в основном вызывает лабиальный герпес, в то время как HSV-2 передается половым путем и является причиной генитального герпеса. Отмечается способность вируса находиться в латентной форме в течение длительного времени и реактивироваться при ослаблении иммунитета. Подробно рассматриваются такие тяжелые осложнения, как герпетический энцефалит и менингит, а также связанные с ними неврологические нарушения и угрожающие жизни состояния. Также приводится информация о диагностике с использованием ПЦР-теста, лечении с применением высоких доз ацикловира и использовании вакцин, включая "Витагерпавак", для поддержания иммунитета. В статье освещается взаимосвязь вируса герпеса с синдромом хронической усталости, цитомегаловирусом, вирусом Эпштейна-Барра, а также их роль в развитии таких заболеваний, как лимфома и лимфосаркома. Материал представляет интерес как для специалистов в области здравоохранения, так и для широкой аудитории, поскольку содержит актуальную и полезную информацию.

Ключевые слова: Обычный вирус герпеса, HSV-1, HSV-2, латентный, герпетический энцефалит и менингит, неврологические осложнения, проявляет, герпес на теле, вирус Эпштейна-Барр, цитомегаловирус, лимфома, лимфосаркома, гемоцитобластома развивается, синдром хронической усталости, тест ПЦР, беременная женщина, "Витагерпавак", герпетические энцефалопатии, обычный герпетический энцефалит (HSE), Асептический менингит, герпетический менингит.

Muammoning dolzarbligi: Gerpes — bu virus keltirib chiqaradigan kasallik. Bu teri va shilliq qavatlardagi suyuqlik bilan to'ldirilgan kichik pufakchalarning toshishi sifatida namoyon bo'ladigan yallig'lanish kasalligi. Kasallikning qo'zg'atuvchisi oddiy gerpes virusi (lotincha Herpes simplex yoki HSV) bo'lib, u dunyo aholisining 90% da mavjud, ammo ulardan faqat 5% ida gerpes namoyon boladi va belgilari rivojlanadi. Oddiy gerpes virusi – HSV (Herpes Simplex Virus) dunyo aholisining katta qismini zararlaydi. Masalan, HSV-1 va HSV-2 bilan zararlangan odamlarning foizi juda yuqori (taxminan 60-80%). Keng tarqalganligi: Gerpes virusi

dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan viruslardan biri hisoblanadi. HSV-1 (labial herpes): Asosan og'iz va lab atrofida herpesni keltirib chiqaradi. Taxminlarga ko'ra, dunyo aholisining 67% (taxminan 3,7 milliard kishi) HSV-1 bilan zararlangan. Virus asosan bolalik davrida yoki yoshlikda yaqin aloqa orqali yuqadi. HSV-2 (genital herpes): Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, dunyo aholisining taxminan 11% (15-49 yosh oralig'idagi 491 million kishi) ushbu virus bilan zararlangan. Herpes virusi yuqish osonligi va infeksiyaning ko'p hollarda simptomlarsiz o'tishi sababli butun dunyoda keng tarqalgan. Shu sababli virusning dolzarbligi nafaqat uning tarqalganligida, balki sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan katta yukida ham namoyon bo'ladi.

Kirish. Virus inson organizmida uzoq vaqt davomida latent holatda qoladi va immunitet zaiflashganda reaktivatsiya bo'lib, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Herpes ensefaliti va meningiti kabi kasalliklar hayot uchun xavfli bo'lishi va jiddiy neyrologik asoratlarga olib kelishi mumkin. Herpesviridae oilasi viruslari hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan infeksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, oddiy herpes virusi homiladorlik davrida homilaga ta'sir qiladi, u keltirib chiqaradigan patologiyalar homilaning tashqi ko'rinishi o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Oddiy herpes virusi ko'pincha quyidagilarga ta'sir qiladi:

- shilliq qavatlar;
- nervlar (meningit, ensefalit);
- ko'rish apparati (keratit, konyunktivit);
- teri qoplamasi;
- jinsiy a'zolarining shilliq qavati.

Kasallikning takrorlanishi burunning yon tomonida, lablar chetida, tish milkida va yonoqning ichki qismida, peshonada va hatto ko'z qovog'ida o'zini namoyon qiladi. Ko'pincha yallig'lanish lablar burchaklarida vujudga keladi. Virusning juda ko'p turlari mavjud bo'lsa-da, jami sakkizta turi ajratiladi:

- I. HSV 1-turi - og'iz va labda o'zini namoyon qiladi. Avval yallig'lanish va qizarish, keyin ichida suyuqlik bolgan pufakchalar paydo bo'ladi. Bir hafta davomida pufakchalar joyida noqulaylik va achishish kuzatiladi. Ba'zida

bemorning harorati ko'tariladi. Bu herpesning eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, sovqotish yoki shamollash paytida qaytalanadi.

- II. HSV 2-turi - jinsiy a'zolarida o'zini namoyon qiladi. U genital herpes deb ham ataladi. Virus jinsiy aloqa orqali yuqadi. Birlamchi va ikkilamchi genital herpes mavjud:
 - a. Birlamchi - yuqishdan keyin herpesning birinchi marta namoyon bo'lishi
 - b. Ikkilamchi - kasallikning qaytalanishi, yil davomida takrorlanadi.
- III. Tanadagi herpes (3-turi) – o'rab oluvchi temiratki. Bolalarda suvchechakni keltirib chiqaradi. 35 yoshgacha bo'lgan kattalarda asab tizimiga, ayniqsa bosh suyagi va orqa miya to'qimalariga salbiy ta'sir qiladi. Tanada yirik nervlar o'tadigan joyda bir qator pufakchalar paydo bo'ladi va tanani o'rab turganga o'xshaydi, nomi shundan kelib chiqqan. Shilliq qavatlar virusning bu turi bilan deyarli hech qachon zararlanmaydi. Herpesning ushbu turi bosh og'rig'i, isitma, achishish, qichishish kabi belgilarni keltirib chiqaradi.
- IV. HSV 4-turi (Epshteyn-Barr virusi) tomoq og'rig'i (angina) ning bir shakli bo'lib, unda limfa tugunlari odatdagidan kattaroq bo'ladi. Alomatlari: tomoq og'rig'i, o'zini yomon his qilish, bosh aylanishi. Yetti kun davomida baland harorat saqlanib qoladi va bodomsimon bezlarda suyuqlik bilan to'la pufakchalar paydo bo'ladi.
- V. HSV 5-turi (sitomegalovirus). U ikki xil namoyon boladi: alomatlar umuman kuzatilmaydi yoki kasallik markaziy asab tizimi va organlarga ta'sir qiladi. Virusning bu turi jinsiy yol bilan yoki kundalik hayotda yuqtiriladi. Ushbu virus chaqaloqqa onadan, shuningdek, emizish orqali o'tishi mumkin.
- VI. HSV 6-turi. Virusning bu turi sababli limfoma, limfosarkoma, gemositoblastoma rivojlanadi.
- VII. HSV 7-turi tufayli surunkali charchoq sindromi paydo bo'ladi. Bu bolalik davrida paydo bo'lishi, ammo immun tizimi yomonlashmaguncha o'zini namoyon qilmasligi mumkin. Limfotsitlar ko'pincha normal miqdorda bo'ladi, lekin ular virusning harakatlari tufayli o'z vazifalarini normal bajara olmaydi. Shu sababli surunkali charchoq rivojlanadi. Vaqt o'tishi

bilan asab tizimining yanada jiddiy muammolari paydo bo'lishi mumkin: xotira va aqlning buzilishi, depressiya.

VIII. HSV 8-turi. Faqat PCR testi orqali tashxis qo'yish mumkin. Virusning bu turi faqat prostata bezi va siydik-tanosil tizimi toqimalarida topiladi.

Gerpesning sabablari; Virusning yuqishi bemorning biosuyuqliklari orqali sodir bo'ladi. Bundan tashqari, terining shikastlangan qismiga tegish orqali yuqtirish mumkin.

Homilador ayol uchun gerpes tug'ilmagan bolaga infeksiyasining yuqishi ehtimoli bilan xavflidir. Bachadon boynidagi pufakchalar bepushtlikka olib kelishi mumkin. Shuningdek, gerpes kichik tos sohasi a'zolariga va uning tuzilmalariga ta'sir qilishi mumkin (ganglionit, nevrit, tos simpatalgiyasi). Gerpesning oldini olish uchun shifokorlar quyidagilarni tavsiya qiladilar:

- Jinsiy sherik tanlashda ehtiyot bo'lish;
- Prezervativlardan foydalanish;
- Antiseptiklardan foydalanish;
- Gerpes bilan kasallangan bemor terisi bilan aloqa qilgandan so'ng, odatiy gigiena qoidalarini bajarish;
- Jamoat joylaridan uyga qaytgandan so'ng qo'llarni yuvish yoki tozalash.
- Shaxsiy gigiena qoidalarini e'tiborsiz qoldirmaslik;
- Notanish odamlar bilan oral jinsiy aloqada bo'lmaslik;
- Linzalarga so'lak tekkizmaslik;
- Begona idish-tovoqlar va kiyimlarni ishlatmaslik.

Gerpesning tarqalishini oldini olish uchun bemor pufakchalarni yorib yubormasligi va yaralarda hosil bo'lgan qobiqlarni olib tashlamasligi kerak.

“Vitagerpavak” - bu HSV infeksiyasini davolashda ham, oldini olishda ham qo'llaniladigan gerpesga qarshi emlashdir. Undan yillar davomida foydalanilib kelinadi. Vaksina virusning inaktivlangan antitanalarini o'z ichiga oladi, bu esa bemorda immunitet reaksiyasi hosil bolishini rag'batlantiradi. Bemorlar ushbu

vaksinani yaxshi o'tkazadilar. "Vitagerpavak"ning uzoq vaqt davomida immunitet ishlab chiqarilishini rag'batlantirishi isbotlangan.

Gerpetik entsefalopatiyalar – bu herpes viruslari (ayniqsa, herpes simplex virusi 1 va 2-turi) tomonidan chaqiriladigan markaziy asab tizimi (MAT) shikastlanishi. Gerpetik ensefalit – oddiy herpes virusi tomonidan chaqiriladigan o'tkir yuqumli kasallik. U asosan bosh miya va nerv tizimining o'choqli shikastlanish simptomlari bilan tavsiflanadi. Infeksiya tanaga ko'pincha shilliq qavatlar yoki teri orqali kiradi. Ushbu kasallik og'ir o'tadi va kechikib davolanganda hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Oddiy herpes ensefaliti (HSE) yoki oddiygina herpes ensefaliti, herpes simplex virusi tufayli kelib chiqadigan ensefalit hisoblanadi. U yiliga kamida har 500,000 kishidan 1 nafarga ta'sir qilishi taxmin qilinadi, va ayrim tadqiqotlar tirik tug'ilgan 100,000 chaqaloqdan 5,9 holatni qayd etadi. Sabablari; Gerpetik entsefalopatiya asosan herpes simplex virusi (HSV-1 va HSV-2) infeksiyasi natijasida kelib chiqadi. Virus qon yoki asab yo'llari orqali miya to'qimalariga yetib boradi va shikastlanishga olib keladi. Patogenez; Virus miya ma'lum hududlariga, ayniqsa, temporal o'lkalarga ta'sir qiladi. Bu neyronlarning shikastlanishi, yallig'lanishi va to'qimalarda nekrozga olib kelishi mumkin. Gerpetik entsefalopatiya simptomlari tez paydo bo'ladi va tezda yomonlashishi mumkin. Herpes ensefalitining taxminan 90% holatlari herpes simplex virus-1 (HSV-1) tomonidan chaqiriladi, bu virus shuningdek, sovuq yara (labdagi yara)larni keltirib chiqaradi. 2006-yildagi tahminlarga ko'ra, amerikalik kattalarning 57% HSV-1 bilan yuqtirilgan, bu virus tomchilari, tasodifiy kontaktlar va ba'zan jinsiy aloqalar orqali tarqaladi, garchi ko'pchilik yuqtirilgan odamlarda hech qachon sovuq yara bo'lmasa ham. Qolgan holatlar HSV-2 tufayli yuzaga keladi, bu virus odatda jinsiy aloqalar orqali tarqaladi va jinsiy herpesning sababi hisoblanadi. HSE holatlarining uchdan ikki qismi allaqachon HSV-1 uchun seropozitiv bo'lgan insonlarda ro'y beradi, ularning kamchiligi (faqat 10%) takrorlanuvchi orofatsial herpes tarixi bilan, qolgan uchdan bir qismi esa boshlang'ich HSV-1 infeksiyasidan kelib chiqadi, asosan 18 yoshdan kichiklar orasida uchraydi. HSE rivojlanadigan shaxslarning taxminan yarmi 50 yoshdan katta bo'ladi. Bolalar va kattalarda ensefalitning eng keng tarqalgan sababi HSV-1 hisoblanadi. Ammo, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va immunosuppressiv shaxslar orasida topilgan ensefalit asosan HSV-2 tomonidan keltirib chiqariladi. Klinik belgilari;

- Haroratning keskin ko'tarilishi;
- Hushdan ketish yoki ong buzilishi (koma holatigacha);
- Tirishishlar;

- Hushning buzilishi (dezorientatsiya, gallyutsinatsiyalar);
- Harakat buzilishi (paralich yoki perezlar);
- Gapirish va xotira funksiyalarining buzilishi.

Diagnostikasi

1. Klinik ko'rik: nevrologik alomatlar.
2. Laboratoriya tekshiruvlari:

Likvor (miya suyagi suyuqligi) tahlilida limfotsitar pleotsitoz va yuqori oqsil darajasi kuzatiladi. PTSR usuli orqali herpes virusini aniqlash.

3. Neyrovizualizatsiya:

- MRT: temporal sohalardagi yallig'lanish va nekroz belgilari.
- KT: ayrim hollarda miyadagi shikastlanishlar tasdiqlanadi.

Davolash

1. Antivirus terapiyasi:

Atsiklovir yoki uning analoglari boshlang'ich davolash sifatida tavsiya etiladi. Davolash erta boshlanganida kasallikning og'irligi va asoratlari kamayadi.

2. Simptomatik davolash:

Tirishishlarga qarshi preparatlar;

Qon aylanishini qo'llab-quvvatlash uchun infuzion terapiya;

Yallig'lanishni kamaytirish uchun glyukokortikosteroidlar.

3. Reabilitatsiya: og'ir holatlardan so'ng nevrologik funksiyalarni tiklash.

Asoratlari;

- Xotira buzilishlari;
- Harakat funksiyalarining tiklanmasligi;
- Qayta-qayta tirishishlar (epilepsiya);
- Koma yoki o'lim.

Oldini olish; Gerpes virusi bilan yuqtirish xavfini kamaytirish (gigiyenaga rioya qilish, virus manbasi bilan kontakti cheklash). Immunitetni qo'llab-quvvatlash.

Gerpesvirus ensefalitining yillik uchrashish chastotasi har 1 million aholi uchun 2 dan 4 gacha holatni tashkil etadi.

Gerpes meningiti – bu orqa miya va miyaning himoya to'qimalari bo'lgan miya qobiqlarining Herpesviridae oilasiga mansub viruslar tufayli yallig'lanishi hisoblanadi. Kattalar orasida eng keng tarqalgani HSV-2 hisoblanadi. Simptomlar odatda ikki hafta ichida o'z-o'zidan cheklanishga moyil bo'lib, kuchli bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, bo'yin qattiqligi va yorug'likka sezgirlik bilan namoyon bo'ladi. Gerpes meningiti qaytalanuvchi meningitning bir turi bo'lgan Mollaret meningitini keltirib chiqarishi mumkin. Tashxis qo'yish uchun miya suyuqligini o'rganish orqali aseptik meningitning namunasini aniqlash uchun orqa miya punksiyasi talab qilinadi, shuningdek, virus mavjudligini aniqlash uchun polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) qo'llaniladi. Garchi simptomlar o'z-o'zidan cheklanishi mumkin bo'lsa-da, herpes meningoensefalitga o'tishni oldini olish uchun antivirus dorilar bilan davolash tavsiya etilishi mumkin. Aseptik meningit – bu bakteriyalar tashqari patogenlar tomonidan keltirib chiqarilgan meningitning eng keng tarqalgan turi bo'lib, 1 yoshgacha bo'lgan bemorlarda 100,000 bemor uchun taxminan 70 holat, 1-14 yoshdagi bemorlarda 100,000 bemor uchun 5.2 holat va kattalarda 100,000 bemor uchun 7.6 holatni tashkil etadi. Meningitning eng keng tarqalgan sabablarini ko'rib chiqsak, 8.3% holatlar herpes simplex virusi tufayli yuzaga keladi. Maxsus ravishda, HSV-2 kattalar orasida meningitning eng keng tarqalgan sababidir. Herpesvirus meningiti asosan 35-40 yoshdagi odamlarni, keksa yoshdagilarni va ayollarni ta'sir qiladi. Kasalliklarning 20% dan 50% gacha bo'lgan qismi klinik qaytalanishlarni ko'rsatadi.

Xulosa. Gerpes virusi inson salomatligiga jiddiy xavf soluvchi viruslardan biri hisoblanadi. Uning latent holatda uzoq muddat davomida saqlanishi va immunitet zaiflashganda faollashishi ko'plab og'ir asoratlarga olib keladi. Gerpes ensefaliti va meningiti kabi nevrologik kasalliklar yuqori o'lim ko'rsatkichi va jiddiy asoratlar bilan kechadi. Shuningdek, virus sitomegalovirus va Epshteyn-Barr virusi kabi boshqa infeksiyalar bilan birgalikda immunitetni pasaytiruvchi holatlarga olib kelishi, limfoma va limfosarkoma kabi xavfli o'smalar rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Zamonaviy diagnostika, jumladan, PCR testi, virusni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Davolashda yuqori samarali antiviral preparatlar, xususan, asiklovir qo'llaniladi. Vaksinatсия va immunoterapiya usullari, masalan, "Vitagerpavak", kasallikning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Gerpes virusi bilan bog'liq muammolarni chuqur

o'rganish va keng jamoatchilikni xabardor qilish virus tarqalishini kamaytirish va og'ir asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST): JSSTning herpes simplex virusi (HSV) bo'yicha global statistikasi va ma'lumotlari bilan rasmiy veb-sayti; <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/herpes-simplex-virus>.
2. Hill JM, Zhao Y, Clement C, Neumann DM, Lukiw WJ (October 2009). "HSV-1 infection of human brain cells induces miRNA-146a and Alzheimer-type inflammatory signaling". *NeuroReport*. 20 (16): 1500–1505. doi:10.1097/WNR.0b013e3283329c05. PMC 2872932. PMID 19801956.
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Herpes>
4. Kumar M, Hill JM, Clement C, Varnell ED, Thompson HW, Kaufman HE (December 2009). "A double-blind placebo-controlled study to evaluate valacyclovir alone and with aspirin for asymptomatic HSV-1 DNA shedding in human tears and saliva". *Investigative Ophthalmology & Visual Science*. 50 (12): 5601–5608. doi:10.1167/iovs.09-3729. PMC 2895993. PMID 19608530.
5. PMID (https://en.m.wikipedia.org/wiki/PMID_(identifier)) 16926356 (https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16926356).
6. ^ Jump up to:a (https://en.m.wikipedia.org/wiki/Herpes_simplex_encephalitis#cite_ref-Whitley-2002_4-0) b (https://en.m.wikipedia.org/wiki/Herpes_simplex_encephalitis#cite_ref-Whitley-2002_4-1) Whitley RJ, Gnann JW (February 2002). "Viral encephalitis: familiar infections and emerging pathogens". *Lancet*. 359 (9305): 507–513. doi (https://en.m.wikipedia.org/wiki/Doi_(identifier)):10.1016/S0140-6736(02)07681-X (https://doi.org/10.1016%2FS0140-6736%2802%2907681-X). PMID (https://en.m.wikipedia.org/wiki/PMID_(identifier)) 11853816
7. "Encephalitis, Herpes Simplex - Symptoms, Causes, Treatment | NORD". *rarediseases.org*. Retrieved 2023-10-02.